

O'ZBEKISTONDA TEATR SAN'ATINING O'RNI

**Karimova Dildora Eshdavlatovna**

*Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani*

*15-son Bolalar musiqa va san'at maktabi*

*Teatr san'ati yo'nalishi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola Yurtimizda san'at sohasiga berilayotgan e'tibor, uning rivojlanish yo'lida yoshlarimizning sa'y harakatlari hamda teatr san'atida hozirgi yoshlarning o'rni va obrazlari haqida ma'lumot keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Teatr, sahna, aktyor, dramaturg, rejissyor, truppa, repertuar, iste'dod.*

Milliy mustaqillikka erishganimizning yana bir natijasi shu bo'ldiki, jahon tarixida katta o'rin tutgan o'zbek xalqining ma'naviyati, madaniyati va san'ati qayta jonlandi. Iqtisodiy ijtimoiy ma'naviy, ma'rifiy, madaniy yuksalish yo'lida har tomonlama mukammal o'ylangan islohotlar amalga oshirildi

Teatr san'ati uzoq tarixga ega bo'lib, uning asosiy unsurlari (boshqa qiyofaga kirish, dialog, to'qnashuv kabi) insoniyatning ibtidoiy davrlarida ovchilik, mehnat va liniy marosim, bayramlar bilan, totemizm, animizm kabi ibtidoiy dunyoqarash va ajdodlarning ruhlariga sig'inish bilan bog'liq holda shakllangan. Yunoniston, Hindiston, Turonda mil. avv. V asrdayoq Teatr jamiyat hayotida muhim o'rin tutgan. Hindistonda teatr sanskrit teatri, xalq teatri shakllarida hamda "Mahobhorat" va "Ramayana" dostonlari bilan bog'liq holda rivojlangan; dramaturgiya va sahna san'ati haqida "Natyashastra" nomli risola yaratilgan. Keyinroq teatr Yaqin Sharq va Rimga ham yoyildi. Ayniqsa, Rimda teatrning yangi shakl va turlari yaratildi. G'arbiy Yevropada teatr san'atining dastlabki namunalari sayyor aktyorlarjonglyorlar ijodida, Rossiyada skomoroxlar faoliyatida yuzaga kelgan. Uyg'onish davrida vujudga kelgan drama yangi shakldagi professional trning shakllanishiga zamin yaratdi. XVI asrdan opera, XVIII asr o'rtalaridan balet, XIX asr o'rtalaridan operetta mustaqil teatr turi sifatida rivojlana boshladi. Teatrning keyingi taraqqiyoti klassitsizmning keng yoyilishi bilan bog'liq. XVIII asr da ma'rifatchilik oqimidagi teatr taraqqiy etdi. Asta-sekin realistik tendensiya kuchaydi. Ayniqsa, K. Goltsoni, G. Lessing, P. Bomarshe, F. Shiller ijodida realizm yorqin namoyon bo'ldi. XVIII asrning oxirlariga kelib, drama, melodrama, vodevillarda satirik yo'nalishning yuzaga kelishi teatrda demokratik asosning kuchayishiga sabab bo'ldi. Teatr g'oyaviy va badiiy kurashlar maydoniga aylandi.

Teatr faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi, chunki aynan shu yillarda shaxsning asoslari, uning didi va afzalliklari qo'yiladi. Bolani tarbiyalashda asosiy jihatlardan biri bu teatr faoliyatidir. Aynan teatr faoliyati bolaning nutqining ifodaliligini shakllantirish, intellektual va badiiyestetik tarbiya bilan bog'liq ko'plab pedagogik muammolarni hal qilishga imkon beradi. Teatr o'yinlarida ishtirok etish orqali bolalar odamlar, hayvonlar, o'simliklar hayotidan turli xil voqealar ishtirokchisiga aylanadi, bu ularga atrofdagi dunyoni yaxshiroq tushunish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, teatrlashtirilgan o'yin bolada o'z ona madaniyati, adabiyoti va teatriga doimiy qiziqish uyg'otadi.

Teatr bolani ma`naviy tarbiyalaydi. Teatr – sehirli olam, unda bola o`ynab, quvonadi, o`ynab atrof olamni o`rganadi, yani uning ichki olami boyiydi. Bolada ijodga e`tibor, qiziqish, intilishning namoyon bo`lishi uning taassurotlarini yangilaydigan emotsional undovlarni talab qiladi.

Bugun katta avlod vakillari yoshlarning vertual olam atrofida o`ralashib qolib, kitob o`qimayotgani-yu teatrga kelmay qo`yganidan ko`p shikoyat qiladi. Shikoyat o`rinli aslida. Ammo chuqurroq o`ylab qarasa, shu holatlarga sababchi bo`layotgan biz – kattalar emasmi? Yoshlarni to`g`ri yo`naltirish, hayotning yozilmagan qoidalaridan ularni voqif qilib borish o`zimizning vazifamiz hisoblanadi. Kun tartibimizdan loaqal bir oyda bir bor teatrga joy bersak, dilbandlarimiz ham o`z farzandlarini ana shu tarbiya maskaniga yetaklab borishga odatlanadilar. Zero, shiddat bilan rivojlanayotgan mamlakatimizda bugun ma`naviyatga har qachongidan kuchli e`tibor berilmoqda. Ayni paytda yurtimizdagi 37 ta davlat teatrlarida 42 ta to`garaklar tashkil etilgani ham buning amaldagi ko`rinishlaridan biri, deyish mumkin. Ushbu to`garaklarga mingga yaqin o`quvchi yoshlar jalb etilgan. Yaqin yillarda bu ko`rsatkich sezilarli darajada o`shishiga shubha yo`q.

Bugungi kunda, aktyorlikka iqtidori bor, rol ijro eta oladigan talabalar turli tadbirlarda, bayramlarda yaxshi asarlarni sahnalashtirayotganlari quvonarli holat. Havaskor aktyorlar har yili o`tkaziladigan teatr festivallarida ham o`z iqtidorlarini namoyish etib kelmoqda. Biz bundan shuni anglashimiz mumkinki, Yangi O`zbekiston Yoshlari o`z iste`dodlarini, iqtidorini butun dunyoga namoyon qilish uchun astoydil kecha-yu Kunduz tinimsiz mehnat qilishmoqda.

O`rni kelganida aytib o`tish joizki, to`garaklar faoliyati jihatidan eng yetakchi teatrlar sifatida Qoraqalpoq qo`g`irchoq teatri hamda Surxondaryo viloyat teatrlarini alohida tilga olish mumkin. Poytaxtda esa Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri va O`zbek Milliy akademik drama teatrlarida olib borilayotgan ishlar e`tiborga molik. Bu ikki teatr xususida gap borganida, albatta yuzlab, minglab yoshlarga ustozlik qilgan, o`zbek teatrlarining ikki zabardast ustunlari – Fatxulla Ma`sudov va Mirza Azizov nomini tilga olmay bo`lmaydi. Zero, har ikkisi ham birinchi rahbar bo`lishiga qaramay, olis hududlarga-da borib, iqtidorli yoshlar, bo`lajak aktyorlarni kashf etishga astoydil bel bog`lagan edi. Xususan, F.Ma`sudovning Shayxontohur tumanidagi ikkita umumta`lim maktabida teatr jamoasi tashkil etib, o`quvchilar bilan shaxsan o`zi ishlagani, Andijonda ham shunday ezgu ishlarga xayrixoh bo`lgani tahsinga loyiq. Bunday mas`uliyatli ustozlarimiz bor ekan, yoshlarimiz san`at sohasida astoydil, ishonch va dadil harakatlar amalga oshirishadilar.

Darhaqiqat, yoshlarni ma`naviyatsizlikda, internetga asirlikda ayblayverish ijobiy natija bermasligini bugun amalda ko`rib turibmiz. Farzandlarimiz misoli yosh nihol. Qay tomonga qarab o`shishini istasak, o`sha yoqqa qarab o`shishadi. Shu ma`noda ularning har turli tomonlarga emas, ko`kka bo`y cho`zishlariga erishishimiz kerak.

Bugungi kunda o`zbek teatrlarining jahon teatrlari bilan hamkorlikda rivojlanmoqda. Keyingi yillarda o`zbek teatri namoyondalari Germaniya, Fransiya, Hindiston, AQSh, Belgiya, Misr kabi davlatlarda bo`lgan nufuzli festivallarda qatnashdilar. O`zbek rejissorlari va aktyorlarini boshqa mamlakatlarga taklif qilish ham odat tusini olgan. Qozog`iston, Tojikiston, AQShdan kelgan rejissorlar teatrlarimiz sahnasidan spektakllar sahnalashtirmoqdalar.

Ispaniyalik va amerikalik san'at ustalari operalarda drijorlik qilmoqdalar. O'zbekistonlik rejissorlar esa Fransiya, AQSh, Izroil, Rossiya teatr sahnalarida o'z sahna ko'rinishlarini namoyish qilganlar. Bunga oid masalalar ko'p bo'lmasa-da ular ravnaq topib bormoqda natijalar esa bunday ijodiy aloqalarni samarali ekanidan dalolat beradi. 1991-yil oxirlaridan boshlab mamlakatimizda ijtimoiy, siyosiy taraqqiyotining yangi davri boshlanadi. O'zbekiston Respublikasi Mustaqil deb e'lon qilindi. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat barpo etishdek oliyanob g'oya, yangi jamiyat qanday bo'lishi, adabiyot san'at namoyondalariga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Rejissorlarning teatrdagi ijtimoiy muhitini, uning hayoti bilan aloqasini o'z yo'li va qiyofasini tanlab shakllantirib olish yo'lidagi urinishlari behuda ketmadi.

Teatr sahnasida kamdan-kam bo'lsa ham lekin mamlakatimizni ijtimoiy va madaniy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarga hamohang qahramonlar qismati haqida hikoya qiluvchi spektakllar sahnalashtirilgan ekan tobora maqsadga muvofiq ish tuta boshladi. Mustaqillikka erishishi bilan teatr sahnasiga qo'yilgan dastlabki jiddiy asar "Sohibqiron Temur" spektakli bo'ldi. Bu spektaklni 1991-yil o'rtalarida K.Yo'ldashev sahnasiga olib chiqdi. Bu buyuk ingliz dramaturgi Krestofer Marloning "Buyuk Temurlang" tragediyasining sahnaviy talqini bo'ldi. Bu dramani A.Samad o'zbek tiliga o'g'irgan.

Xulosa qilib aytish kerakki, Hamza nomidagi teatrning 90-yillardagi faoliyati misolida teatr san'ati taraqqiyotida muhim tamoyillarda bilan bir qatorda ayrim ziddiyatlari ham o'z ifodasini topdi. Teatr jamoasining yutuqlari singari kamchiliklari ham mamlakatimiz teatr san'ati ravnaqiga bevosita ta'sir ko'rsatib keldi. Bu borada teatr jamoasi hamisha o'ziga xos betakror ijodiy uslubiga ega bo'lgani diqqatga sazovordir. Bu dargohda o'ziga xos aktyorlik maktabi shakllangan. Uning ijodiy jamoasi mamlakatimizda hamon yetakchilik qilmoqda. Mazkur teatr ijtimoiy va ma'naviy hayotimizda uzoq vaqt yetakchi o'rin tutib, teatr san'atining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Milliy san'atning boshqa dorilfunun teatrlari uchun ibrat namunasi bo'lib keldi. Bu ijodiy jamoaga 1960-80-yillarda To'la Xo'jayev, Aleksandr Gezburg, Bahodir Yo'ldashev, Rustam Hamidov singari iste'dodli rejissorlar yetakchilik qiladilar. Ular teatrn dastlabki avlodga mansub benazir rejissor va aktyorlar boshlagan yuksak badiiy an'analar davom ettirish bilan bir qatorda yanada rivojlantirdilar. Jahon va milliy mumtoz asarlar, O'zbekiston birinchi marta aynan shu san'at dargohida sahnalashtirdi. Teatr ijodiy jamoasining butun o'zbek teatr san'ati ravnaqiga ta'siri, milliy madaniyatimizda tutgan o'rnini beqiyos ekanligini ko'rsatib o'tishimiz kerak. Mamlakatimizning madaniyati hamda san'ati taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan, ko'plab buyuk san'atkorlarning ibratli hayoti va samarali faoliyati bugungi yosh avlod uchun o'rnak vazifasini bajaradi. Ta'kidlanganidek, teatr insonlarni ma'naviy tarbiyalashga, ularning bilim va madaniyatini boyitishga, o'zaro mehr-oqibat, hurmat va do'stlik munosabatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan maskandir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ahmedov, Z., & Umarova, X. (2021). Stage Approach and Story Evaluation Criteria. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 8-15.
2. Raximberdiyevich, M. A. (2022). TEMP VA RITMNING AKTYORLIK SAN'ATIDA TUTGAN O'RNI. *Oriental Art and Culture*, 3(1), 15-19.

3. Raximberdiyevich, M. A. (2022). YOZMA DRAMATURGIYAGA ASOSLANGAN QO‘G‘IRCHOQ TEATRIDA AKTYORNING O‘RNI. *Oriental Art and Culture*, 3(1), 20-28.
4. Madaliev, A., & Mirsolieva, D. (2022, March). QO‘G‘IRCHOQ TEATRI SAN‘ATI. In *Archive of Conferences* (pp. 92-95).
5. Madaliyev, A. (2021). QO‘G‘IRCHOQ TEATRI VA IJROCHILIK MAHORATI. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 9-16.